

TA'LIMDA SISTEMALI YONDASHISHNI TASHKIL ETISH.

t.f.n. G`.S. Arifxo`jayev

JDPI Defektologiya kafedrası o`qituvchisi.

O.M.Ziyodullayev

2- bosqich magistranti.

Аннотация. Ushbu maqolada ta`limda sistemali yondashuvni tashkil etishning mazmuni, tarkibi hamda amaliy ahamiyati ifodalangan.

Калит so`zlar: *turkumlashtirish, sistema, metod, analiz, ta`lim, model, sistemali yondashuv.*

Аннотация. В данной статье рассматриваются содержание и практическая ценность организации системного подхода к образованию.

Ключевые слова: *классификация, система, метод, анализ, образование, модель, системный подход.*

Annotation. In this article discusses the content, content and practical value of organizing a systematic approach to education.

Key words: *classification, system, method, analysis, education, model, systematic approach.*

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichlarida vujudga kelgan global muammolar va u bilan bog`liq bo`lgan tabiat, jamiyat, inson haqidagi bilimlarni turkumlashtirish, zaruriyati oliy maktab pedagogikasiga va pedagogik faoliyat jarayonlarida qo`llaniladigan turli xil sistemali yondashuv yo`llarini yagona, umumiy g`oyaviy asosda birlashtirishning obektib shart- sharoitini vujudga keltirmoqda. Bu zaruriyat insoniyatni biologik tur sifatida vujudga kelgan global muammolarni birlashtirib, ongli ravishda xal qila oladimi? Yoki yo`q bo`lib ketadimi degan masaladan kelib chiqmoqda.

Agar turkumlashtirishni boshlang`ich asos sifatida oladigan bo`lsak, pedagogikada sistemali yondashuv qo`llanilayotgan soxani mazmunini quyidagi quyidagi yo`nalishlarga jaratib tahlil qilish lozim:

a) Metodni o'zini analiz qilish nuqtai nazaridan sistemali yondashuv yo'nalishini ishlab chiqish, ya'ni, sistemali yondashuvni nazariy darajada taxlil qilish;

b) Texnologik xususiyatga ega bo'lgan sistemali yondashuvni, ya'ni pedagogik jarayon (pedagogik voqiylik) va amaliyotda qo'llash uchun yaroqli bo'lgan sistemani yaratish.

Sistema o'zaro bog'langan elementlarning yig'indisi bo'lib, ularning har bir soxasida sodir bo'ladigan o'zgarish boshqalariga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Sistemali yondashish, sistemani tashkil qiluvchi komponentlarni aniqlash va ularning o'zaro aloqadorlik tabiatini belgilash xamda sistemaning oldida turgan kelajakdagi maqsad va vazifalarni ko'ran olishni talab qiladi.

Tabiiyki sistemali yondashuv masalasi muhim nazariy ahamiyatga ega bo'lishi bilan birga hozirgi kunda metodni amaliy qo'llash texnologiyasiga bo'lgan extiyoj ham ortib bormoqda.

Materialni emperik analiz qilishda sistemali yondashish usuli asosida o'rganilayotgan ob'ektiv xususiyatiga qarab bir necha yo'nalishlarga bo'lish mumkin. Binobarin ta'lim mazmunini tadqiqot qilishda baxolash mezonlarini qiyosiy analizi professor-o'qituvchilar faoliyati samaradorligini baxolash, o'quv jarayonini boshqarishga sistemali yondashish usulini qo'llash shular jumlasidandir. Bu yo'nalishlar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ta'lim sifatini ko'tarish va o'quv jarayonining samaradorligini oshirish maqsadini o'z oldiga qo'yadi.

Kadrlar tayyoylash milliy dasturini amalda bajarish va kadrlar sifatini yaxshilash, ta'lim muassasalari oldida turgan asosiy vazifa bo'lib, sistemali yondashish uslubini qo'llash va yo'nalishlarini aniqlash xususiyatlarini belgilab beradi. Sistema xosil qiluvchi yo'nalishlarda ta'lim mazmunini analiz qilishda qo'llaniladigan sistemali yondashish usulni qismlarga (bo'laklarga) ajratilib yetakchisi sifatida belgilanadi, qolganlari uning atrofida birlashadi. O'quv jarayonida esa yangi axborot texnologiyalarini qo'llash samaradorligini oshirish xisobiga mutaxassislar tayyorlash samaradorligini oshirish intizomini

mustahkamlash, o`qituvchilar malakasini oshirish va talabalar bilimini preffessional sifatida baholash.

Sistemali yondashish usulining asosiy maqsadi nafaqat metodni analiz qilish, o`z navbatida pedagogik voqelikni qo`llashni tadqiqot qilishdir. Xullas, sistemali yondashish usulini takomillashtirish oddiydan murakkab tomonga yo`nalib, bayon qilingan yo`nalishlarda qo`llash jarayonida ta`lim mazmunini boshqaruvchi yo`nalish sifatida namoyon bo`ladi.

Ta`lim samaradorligini oshirish maqsadida sistemali yondashish usulidan foydalanish shuni taqazo etadiki, u nafaqat ta`lim-tarbiya jarayonini tadqiqot qilish metodi sifatida, ayni vaqtda uni takomillashtirish metodi sifatida ishlab chiqilmoqda.

Lekin, hozirgi vaqtda sistemali yondashish metodi yuqorida tahlil qilingan darajada bizning pedagoglarimiz faoliyatida ta`lim-tarbiy jarayonini modernizatsiyalashda qo`llaniladigan turli shakldagi metodlar sifatida aniqlashtirilgani yo`q. binobarin, bir qator taraqqiy etgan mamlakatlar pedagogik ta`limotlarida sistemali yondashish metodi turli ilmiy tadqiqotlarida ta`lim muassasalari va pedagogik xodimlar faoliyatini namoyon bo`lishini asoslovchi o`ziga xos shart-shaoritlarining normativ ko`rsatkichlari bilan yakuniga yetkazilgan. Konkretlashgan sistemali metod, ta`lim sistemasi xodimlari uchun ta`lim muassasalarini takmillashtirishning muxim vositasi bo`lib xizmat qiladi. Demak, modellashtirish jarayon sifatida ta`lim nazariyasi va amaliyotida sistemali yondashishni joriy qilishning muhim tarkibiy qismi bo`lib xisoblanadi. Shuning uchun ham modellashtirish metodi bilan sistemali yondashish va sistemali metodni xar tomonlama tekshirib, ilmiy tadqiqot darjasida sintez qilish haqida fikr yuritish mumkin.

Sistemali yondashish asosida modellarni tuzish prinsiplari xilma-xildir. Bu o`rinda sistemali yondashishni amalga oshirishni ifoda etuvchi modellarni uch xilini ko`rsatish mumkin.

Birinchi xili ijtimoiy-pedagogik darajada keng keng qo`llanilishi mumkin bo`lgan model- bu umumsotsiologik model turida tuzilgan turli darajadagi

tarkibiy qismlardan iborat bo`lib, ta`lim muassasalarini islox qilishda inobatga olinishi zarur bo`lgan turli darajadagi tarkibiy qismlardan iborat:

1) Individual tarkibdagi omillar □ o`quvchilar, ularning ijtimoiy kelib chiqishi, ular tarbiyalanigan oilaning tarkibi, jinsiy farqlar, aqliy faoliyati va o`qishga munosabati;

2) Ta`lim muassasasi darajasidagi omillar □ o`quv muassasasi va o`quv xonasining (uning mikro muxiti, o`qituvchilar va talabalar xarakteristikasi, o`qitish metodlari va o`quv dasturlari) moddiy ta`minoti, pedagoglar jamoasi o`rtasidagi, o`qituvchilar bilan ma`muriyat o`rtasidagi munosabatlar;

3) Ta`lim muassasasidan tashqaridagi omillar □ (oila va mahalla) va urbanizatsiya jarayoni (siyosat jarayoni);

4) Milliy darajaga ta`sir qiluvchi omillar □ ommaviy axborot vositalari, ta`lim jarayoniga ta`sir etuvchi qonunchilik muassasalari.

Quyidagi ikki xil ko`rinishdagi model ham bevosita pedagogik masalaga oiddir:

Birinchi kibernetik axborot turi asosida tuzilgan model bo`lib, shu turga xos bo`lgan quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: kiritiluvchi (kirish), chiquvchi jarayon, teskari aloqa, muhit va h.k.

Ikkinchi bosqichli model. Bu turdagi modellarda bir nechta bosqich mujassamlashgan bo`lib, kerakli bo`lgan natijani olish uchun izchil ravishda barcha bosqichlardan o`tish shartdir.

Xulosa qilib aytganda, ta`limda sistemali yondashishni joriy etish ta`lim oluvchilarning integratsiyalashgan sistemali o`quv-bilish faoliyatini tashkil etish va uni samaradorligini amalga oshirishning muhim sharti xisoblanadi.

Adabiyotlar.

1. Исаев И.Ф. Школа как педагогическая система. Москва., 1997 г
2. Беспалко В.П. основы теорим педагогический систем. Воронеж., 1977г